



## HOZIRGI BOSQICHDA DUNYONING RIVOJLANGAN MAMLAKATLARIDA XALQ TA'LIMI VA PEDAGOGIKA FANI

<sup>1</sup>Elmuratova Aziza Askerbay qizi,

<sup>2</sup>Aldamuratova Nargiza Baxitbaevna,

<sup>3</sup>Kenesbaeyva Banu Kuatbay qizi,

<sup>4</sup>Karajanova Elvira Karajan qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining

Pedagogika fakulteti 3-bosqich talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7496237>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 29<sup>th</sup> December 2022

Online: 31<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

*Fanlararo integratsiya, Yapon mo'jizasi, xalqaro ta'lism, pedagogika, metodika, BMT vakolatxonasi.*

Bugungi kunda jamiyatimiz rivojining poydevori sifatida baholanayotgan ta'lism tizimi va bu borada olib borilayotgan islohotlar kishini quvontiradi albatta. Dunyoning eng rivojlangan davlatlaria ta'lism, fan, ijtimoiy sohalarda erishilayotgan yutuqlarini chuqur o'rghanish, isloh qilish va tajribada sinab ko'rish masalalari eng ustuvor vazifalardan biridir. Haqiqatdan ham, yoshligidanoq ma'naviy jihatdan yuksak tarbiya olgan, dunyo ta'lism standartlari asosida tahsil olgan kadrlar nafaqat O'zbekiston balki dunyo hamjamiyatida ham katta yutuqlarga erishishi mumkin. Bu borada muhtaram prezidentimizning "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi, degan gapini ko'p takrorlaymiz. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, unda har bir mas'ul idoraning vazifasi va birgalikda amalga oshiradigan choratadbirlarini aniq belgilab qo'yish zarur"<sup>1</sup>

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada duynoning rivojlangan davlatlari ta'lism tizimida olib borilyotgan islohotlarning O'zbekiston ta'lism tizimida qo'llanilishi, shu bilan birga fanlararo integratsiyalashuv haqida fikr yuritilgan.*

degan gaplariga amal qilish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etidi.

Hozirgi vaqtda dunyo hamjamiyatining rivojlangan davlatlarida yuz berayotgan ta'lism islohotlaridan voqif bo'lish va ularning amaliyotini sinab ko'rgan holatda, kishilik jamiyatimizga tatbiq etish asosiy vazifalardan biri sifatida qaraladi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida yuz berayotgan xalq ta'limi va pedagogika fani yangiliklarining O'zbekistonda joriy etilishidan oldin, sinov muddatining joriy etilishi va ijobjiy samara beruvchi ilmiy-ijodiy yangiliklar bilan BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi mutaxasislari hamda elchilarining faoliyati ahamiyatga molikdir. "Shu bilan birga Fransiya madaniyat markazi, AQSHning Tinchlik korpusi mutaxasislari, YuNESKO va boshqalarning vakolatxona xodimlari dunyo ta'lism tizimi bilan yaqindan tanishishning amaliyoti bilan aloqadorlikni

<sup>1</sup> Mirziyoyev Shavkat "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". To'ldirilgan ikkinchi nashri. -Toshkent: "O'zbekiston" nashryoti, 2022



shakllantirishda xizmati katta”<sup>2</sup>. Hozirgi vaqtida dunyoning rivojlangan davlatlarida yuz berayotgan ta’lim islohotlarining samaraliligi yuzasidan “Yapon mo’jizasi”ni keltirib o’tish maqsadga muvofiqdir. Aytish mumkinki, ikkinchi jahon urushining og’ir talofatlardan so’ng Yaponiya davlati namuna sifatida Amerika ta’lim yo’lidan borishi tufayli buhungi kunda Yaponiya ta’lim tizimida ijobjiy o’zgarishlarning samarasi o’laroq, dunyo hamjamiyatida rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o’rin egallab kelmoqda. Shu boisdan ham O’zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish hamda jahon ta’lim standartlariga to’la javob beruvchi ta’lim tizimiga aylantirish yuzasidan qaror ishlar amalga oshirilmoqda. Bu da turli metodik o’quv uslubiy qo’llanmalar, shuningdek, fanlararo integratsiyalashuvi masalasining keng tarzda amaliyotga joriy etilishidir.

Namunaviy jihatdan ta’lim tizimimizga Germaniya ta’lim dasturi va Yaponiya ta’lim dasturining sinovlar asosida qo’llanishi va sinovdan o’tkazilishi yuzasidan ijobjiy natijalar ko’zlangan. “Germaniya ta’lim tizimining farqli jihatlaridan biri shuki, maktab o’quvchilari to’la xafalilik o’qish tizimida tahsil olishi, xususiy maktablarning davlat maktablaridan soni anchayin kam ekanligi, boshlang’ich sinfni bitirgandan so’ng yo’nalishlarga biriktirilgan maktablarda o’qishi kabi farqli jihatlari bilan farqli jihatlarni keltirib chiqaradi”<sup>3</sup>. O’zbekiston ta’lim tizimi va pedagogika tizimida esa

yangi o’quv materiallari asosida fanlararo integratsiyalashuv masalasining yuqori ko’tarilishi hamda tatbiq etilishi xarakterli jihatlardan biridir. Bugungi davr nuqtai nazaridan kelib chiqib baholaydigan bo’lsak, O’zbekiston ta’lim tizimi xalqaro ta’lim tizimining yangiliklaridan boxabar bo’lish hamda AQSH, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya va boshqa davlatlarning ta’lim tizimi bilan yaqindan tanishgan holatda hamkorlikni yo’lga qo’yish ahamiyatlidir. Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim tizimining namunaviy misollar asnosida rivojlantirish katta samaradorlikni yuzaga keltiradi. Bunda asosan kasbiy malakaning shakllantirilishi, bitiruvchi sinf o’quvchilari bilan kasbga yo’naltirish ishlarining keng tarzda olib borilishi, kadrlar tayyorlash va ularning ish faoliyati bilan bog’liq masalalarning xalqaro tajribada sinovdan o’tganlarinigina amaliyotga tatbiq etish o’rinlidir. O’zbekistonda fanlararo integratsiyaning didaktik vositalar bilan ifodalanishi, boshlang’ich, o’rtta va oliy ta’lim sohalarida ham olib borilayotgan islohotlar dunyo hamjamiyati vakillarining ta’lim sohasidagi e’tiroflariga sazovor bo’lib kelmoqda.

<sup>2</sup> J.Hasanboyev, X.A. To’raqulov, I.SH. Alqarov, N.O’. Usmanov “Pedagogika”. Qayta ikkinchi nashr. - Toshkent: “Noshir” nashryoti, 2016

<sup>3</sup> Ismailova Zukhra Karabayevna, Maxsudov Po’lat Maxsudovich, Ergashev Oybek Karimovich “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi”. Darslik. Toshkent- 2020



## References:

- 1.Mirziyoyev Shavkat "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". To'ldirilgan ikkinchi nashri. -Toshkent: "O'zbekiston" nashryoti, 2022
- 2.J.Hasanboyev, X.A. To'raqulov, I.SH. Alqarov, N.O'. Usmanov "Pedagogika". Qayta ikkinchi nashr. -Toshkent: "Noshir" nashryoti, 2016
- 3.Ismailova Zukhra Karabayevna, Maxsudov Po'lat Maxsudovich, Ergashev Oybek Karimovich "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi". Darslik. Toshkent- 2020